

## MAHMUD KOSHG'ARIYNING “DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARI TURKIYCHA SO‘ZLAR ETIMOLOGIYASI AKS ETGAN LUG‘AT SIFATIDA

*Sadatova Dilafruz Muhiddin qizi*

*Surxondaryo viloyati Termiz davlat universiteti  
Lingvistika (O‘zbek tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida etimologiya, uning mazmuni, turlari, etimologik lug‘atlar, jumladan, turkiycha so‘zlarning etimologiyasi aks etgan ilk manba sifatida o‘rganiladigan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu Lug‘ati-t-turk” asari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Etimologiya, etimologik lug‘at, Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu Lug‘ati-t-turk” asari, turkiycha so‘zlar, mazmuniy etimologiya, shakliy etimologiya.

Etimologik lug‘at haqida fikr yuritishdan oldin eng avvalo so‘z va uning etimologik mazmuni haqida yetarlicha tushunchalarni keltirib o‘tishimiz joizdir.

**Etimologiya** – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. *Etimologiya* so‘zi asli yunoncha *etyman* va *logos* so‘zlaridan tarkib topgan; *eti-mon* so‘zi “*chin asl mohiyat*” ma’nosini, *logos* so‘zi esa ta’lim ma’nosini anglatadi; shunga ko‘ra etimologiya sohasida so‘zlarning asl shakli va ma’nosini aniqlash bo‘yicha ishlar olib boriladi. O‘zbek tilshunosligida etimologiya ayrim soha sifatida shakllanmagan.

Tilshunoslik bo‘limi hisoblangan etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalar hamda til lug‘at tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki qadimiy holatini tiklashdan iborat. Har bir til leksikasida muayyan miqdorda so‘zlar borki, ularning shakli bilan ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlik shu til egalari uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan, chunki so‘zning tarixan o‘zgarib borishi uning dastlabki ma’nosini xiralashtirib qo‘yadi, bunday so‘zning strukturasi tildagi maxsus yasash qolipi asosida izohlab bo‘lmaydi.

Etimologik tahlilning maqsadi muayyan so‘zning qachon, qaysi tilda qanday yasash qolipi asosida, qaysi til materiali asosida qanday shakl va ma’noda paydo bo‘lganini aniqlashdir. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy metod bo‘lib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, morfologik o‘zgarishlarga tayanib ish ko‘radi. . Bunday tadqiqot natijalari til tizimi va strukturasi tildagi turli jarayonlarni hamda so‘zlarning etimologik ma’nolarini aniqlashda, etimologik lug‘atlar tuzishda ahamiyatlidir. Muayyan til uchun o‘zlashma hisoblangan so‘zlarning etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas. Masalan, hozirgi o‘zbek tilidagi “daftar”, “piyola”, “qalam” kabi so‘zlarni yunon tiliga mansubligi, o‘sha tildagi (dastlabki) ma’nosini aniqlash kifoya qiladi. Biroq “juda qadimiy” ma’nosidagi “daqyonus (daqqiyunus) dan qolgan” iborasining etimologiyasini aniqlash uchun din tarixidan, Qur’oni karimdan va

Rim imperiyasi tarixidan ham xabardor bo‘lish kerak.

So‘z etimologiyasining ilmiy etimologiya, soxta etimologiya, xalq etimologiyasi kabi turlari bor.

Ilmiy etimologik tahlil til tarixiga, lahja va shevalarga murojaat qilish, faktlarni turli yo‘llar bilan qiyoslash orqali yuzaga keladi. Mas, pichoq so‘zining “bi”(tig‘) o‘zagiga -chak qo‘shimchasini qo‘shish yoki “bich” kesib tashla fe‘liga -ak qo‘shimchasi qo‘shish orqali, “kuy” so‘zining qadimiy turkcha “ko‘g” so‘zining “ko‘y”, “kuy” kabi shakl o‘zgarishi va qisman ma‘no o‘zgarishi orqali paydo bo‘lganligi ilmiy etimologik tahlillar bilan o‘rganilgan. Lisoniy birliklarni etimologik tahlil qilishda ularning tarkibida tejamkorlik natijasida ro‘y bergan o‘zgarishlarga jiddiy e‘tibor qaratiladi. Mas, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanayotgan, payt ma‘nosini bildiruvchi tunovgi-tunovkun-tunovin so‘zlari aslida 3 tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, “tun og‘gan qun” shaklida qo‘llangan va bir qancha shakl o‘zgarishlaridan keyin mazkur ko‘rinishga ega bo‘lgan. Demak, “tunovgi”, “tunovkun”, “tunovin” so‘zlari, etimologik jihatdan mavjud lug‘atlardagidek o‘tgan kun, burnog‘i kun, kechadan oldingi kun ma‘nolarini emas, balki kecha, ya‘ni tun og‘gan kun (tun chappa bo‘lgan kun) ma‘nosini ifodalagan.

Soxta etimologiya eskirgan yoki o‘zlashma so‘zning morfologik tuzilishi va boshqa xususiyatlarini noto‘g‘ri tushunish natijasida yuzaga keladigan izoh hisoblanadi. Mas, “meditsina” so‘zini “madadi Sino” tarzida ajratib, Ibn Sino nomi bilan yoki “dorchin, dolchin” so‘zini “haqiqiy dori” birikmasi bilan bog‘lash “soxta etimologiya” bo‘lib aslida lot. Meditsina- “vrachlik mahorati davolash” ma‘nosini, forsha dolchin esa “doruyu-chin” – xitoy dorisi ma‘nosini bildiradi. Xalq etimologiyasi muayyan so‘zning ma‘nosini aniq faktlarga asoslanmagan holda, faqat tovush tomonining tasodifiy o‘xshashligiga qarab, shuningdek, rivoyatlarga tayangan holda izohlashdan iboratdir.

Etimologik talqin har qanday tilda asosan barcha so‘zlarga emas, balki so‘z boyligining ma‘lum bir qismigagina beriladi. Ya‘ni asosan tildagi o‘z qatlamga oid bo‘lgan so‘zlarga etimologik jihatdan yondashish va uning etimologik mazmun mohiyatini aniqlash mumkin. Sheva va dialektlarga oid so‘zlar kamdan-kam holatlarda etimologik talqinga ega bo‘ladi. Buning sababi shundaki, ushbu so‘zlarning asosida uning adabiy shakli yotadi va shevadagi o‘zgarishlar ko‘p jihatdan og‘zaki nutqqa xos bo‘ladi. Mana shuning uchun ham so‘zlarning adabiy tildagi variantini etimologik jihatdan talqin qilishimiz ilmiy jihatdan o‘rinliroq sanaladi.

So‘zlardagi etimologik talqin odatda ikki jihatdan beriladi:

*Ishakl (tovush) jihatidan;* Ushbu jihatdan tahlil qilishda so‘zning etimologiyasiga shakli jihatdan yondashamiz, ya‘ni so‘zdagi tovushlarning tarixan qanday holatda bo‘lganligi va davrlar o‘tishi jarayonida qanday o‘zgarishlarga uchraganligiga ahamiyat beramiz. Shuni ham e‘tiborga olishimiz kerakki, shakl tomonidan yondashganimizda so‘zning asosi va qo‘shimchalarida bo‘layotgan tovush o‘zgarishlariga ham e‘tibor

qaratishimiz zarur. Buning sababi shundaki soʻzlar etimologiyasida qoʻshimchalarning ham, asosning ham maʼlum darajada boshqa tovushga oʻzgarishiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Soʻzning tarixan shakllanishida, yasalişida xizmat qilgan qoʻshimchalar bugungi kunda maʼlum bir oʻzgarishlarga uchragan holda qoʻllanilishi, yoki umuman oʻz ahamiyatini yoʻqotgan boʻlishi ham mumkin. Aynan mana shu jihatlar soʻzlarning shakliy tomonidan etimologik talqin qilinishi asosida oʻrganiladi.

2. *mazmun jihatidan*; Soʻzni mazmuniy jihatdan etimologik talqin qilishda tanlangan soʻzning tarixan qanday mazmunni anglatganligi, oʻzi paydo boʻlgan davrda nimani (maʼlum bir shaxs yoki predmet va h.k.larni) anglatganligi va ularga qaysi jihatdan asoslanib kelib chiqqanligi yaʼni, leksemaning eng dastlabki asosiy mazmunini topishga eʼtibor qaratiladi.

Masalan “Devonu lugʻati-t-turk” asarida keltirilgan, bugungi kunda ham oʻzbek tilida keng isteʼmoldagi koʻp maʼnoli oʻq soʻzining bosh maʼnosi deb lugʻatlarda “yoyga qoʻyib otiladigan narsa” maʼnosi keltiriladi. Bu soʻzning “miltiq kabi issiq qurollardan otiladigan maʼdan” maʼnosi yuqoridagi maʼnodan oʻsib chiqqan: “Yoyning oʻqi” – “miltiqning oʻqi”. Oʻzbek tilida “ikki uchi doira shaklida silliq yoʻnilib, gʻildiraklar oʻrnatishga xizmat qiladigan mustahkam gʻoʻla” maʼnosini anglatuvchi oʻq soʻzi ham mavjud. Bu soʻzning maʼnosini “yoyning oʻqi” maʼnosidan oʻsib chiqqan deb boʻlmaydi. Shuningdek oʻqlagʻi yasama soʻzining asosi boʻlgan oʻq soʻzining asosi boʻlgan oʻq soʻzining maʼnosi ham “yoyning oʻqi” maʼnosidan kelib chiqqan deb boʻlmaydi. Shundan maʼlumki bu maʼnolar uchun asos vazifasini oʻtagan boshqa bir dastlabki maʼno mavjud boʻlgan. Qadimgi turkiy tilga va ayrim hozirgi turkiy tillarga mansub maʼlumotlar oʻq oti aslida “toʻgʻri silliq tayoq” (yogʻoch) maʼnosini bildirganini koʻrsatadi. Aynan mana shu maʼno oʻq otining etimologik maʼnosi boʻlib yuqoridagi maʼnolar mana shu maʼnodan oʻsib chiqqan. Ushbu maʼno bugungi kungacha yetib kelmaganligi sababli oʻq soʻzining hozirgi oʻzbek tilidagi bosh maʼnosi sifatida uning dastlabki hosila maʼnolaridan biri koʻrsatiladi. Demak bu misolda etimologik maʼno yuqoridagi ikki soʻzning yuzaga kelishi uchun asos boʻlib xizmat qilgan.

Yuqoridagi misollarimizdan kelib chiqqan holda etimologiya va uning mohiyatiga nisbatan soʻzning shakliy yoki mazmuniy jihatdan kelib chiqish tarixi deb qarashimiz mumkin. Bu masalada turkiy til yoki adabiyotlarda kamdan kam maʼlumotlar uchraydi. Deyarli bu yuzasidan XI asrgacha, yaʼni Mahmud Koshgʻariy davrigacha biror bir maxsus asar yaratilganligi fanga maʼlum emas.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻati-t-turk” asarida ayrim soʻzlarning etimologiyasiga alohida toʻxtalib, ularning kelib chiqishi haqida maʼlumotlar beriladi. Shuning uchun ham ushbu asarga nisbatan faqat qomusiy asar deb emas, balki ilk etimologik lugʻat sifatida ham baho beramiz. Shuni eʼtibordan chetda qoldirmasligimiz kerakki, ushbu davrda bu kabi maʼlumotlarni berish anchayin murakkab edi. Sababi Koshgʻariy gacha bu masalada kerakli maʼlumot va axborotlar tayyor holatda emas edi.

Shundan kelib chiqqan holda ijodkor o‘zining uzoq yillik sayohati davomida faqat turkiy so‘zlarning qaysi urug‘ va qabilalarga mansubligi, nomlar va ularning arab yozuvidagi ifodasi, tovush tuzilishinigina emas so‘zlarning kelib chiqishi haqida ham yetarlicha ma‘lumotlar to‘plaganiga amin bo‘lamiz.

“Devonu lug‘ati-t-turk” tuzilishiga ko‘ra ikki – muqaddima va lug‘at bo‘limlaridan tashkil topgan. Muqaddimada kitobning yozilish sababi, uning tuzilishi; turkiy urug‘ va qabilalar qo‘llaydigan yozuv; otlarning yasalishi; fe‘llarning tuslanishi; so‘z tarkibi (morfem tuzilishi); kitobda e‘tibor qaratilgan grammatik qoidalar; turkiy xalqlarning ta‘rifi va ularning o‘rnashgan o‘rni; turkiy lahjalaridagi farqlar xususida so‘z yuritiladi.

Lug‘at sakkiz bo‘limdan iborat. Ular quyidagilar:

1. Hamzali so‘zlar, ya‘ni “alif” bilan boshlanadigan so‘zlar bo‘limi.
2. Solim, ya‘ni “alif”, “vav”, “ya” harflari bo‘lmagan so‘zlar bo‘limi.
3. Muzoaf, ya‘ni undoshlari ikkilanadigan so‘zlar bo‘limi.
4. Misol, ya‘ni tarkibida “alif”, “vav”, “ya” bo‘lgan so‘zlar bo‘limi.
5. Zavatu-s-salasa (uch harfli so‘zlar), ya‘ni “alif”, “vav”, “ya” harflari qisqa unli sifatida o‘qiladigan so‘zlar bo‘limi.
6. Zavatu-l-arba‘a (to‘rt harfli so‘zlar), ya‘ni “alif”, “vav”, “ya” qisqa talaffuz qilinadigan so‘zlar bo‘limi.
7. G‘unnalilar, ya‘ni tarkibida burun (dumog‘) tovushlari kelgan so‘zlar bo‘limi.
8. Al-jam‘ bay-nas-sakinayi, ya‘ni harakatsiz ikki undoshli so‘zlar bo‘limi.

Har bir bob ism va fe‘llardan iborat ikki qismga ajratilgan. Otlar oldin, fe‘llar esa keyin o‘z sirasiga qarab boblarga ajratilib, oldinma-ketin beriladi. So‘zlarning berilish ketma-ketligi ham arab lug‘atchiligi ishlab chiqqan tamoyillarga tayanadi: oldin ikki harflilar, so‘ng uch, to‘rt, besh, so‘ng olti harfli so‘zlar keladi.

Lug‘atda o‘sha zamondagi turkiy tilning deyarli barcha sohalariga tegishli so‘zlar jamlangan, iste‘moldan chiqqan so‘zlar berilmagan, Faqat faol iste‘moldagi so‘zlargina berilgan. Lug‘atda so‘zlarning izohlanishi quyidagicha: avval turkiy so‘z, so‘ng uning arabcha tarjimai keltiriladi. Izohlanganda esa uning fonetik variantlari, sheva so‘zi bo‘lsa, qanday shevada uchrashi qayd etiladi.

Masalan, im (belgi, yashirin so‘z) so‘ziga izoh berar ekan, shunday yozadi: “im – shoh askarlariga qo‘yilgan (tayinlangan) yashirin belgi, parol; bu belgi qush yoki qurol nomi yoki biror so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin; to‘qnashganda uni aytib o‘zlarini tanitadilar; maqolda shunday kelgan: im bilsä er ölmäs — Im bilsa, er o‘lmas (Kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o‘lmaydi)”.

Ayrim so‘zlar bir dialektida ma‘lum bir shaklda bo‘lsa, ikkinchi dialektida uning o‘rnida boshqa so‘z qo‘llanilgan. Bu narsa Mahmud Koshg‘ariy tomonidan ham alohida qayd etilgan: Masalan, boshqa turklar idish, kosa, piyolani ayaq desalar, o‘g‘uzlar uning o‘rnida janaq so‘zini qo‘llaganlar ,turklar almila (ya‘ni olma) desalar, o‘g‘uzlar alma so‘zini qo‘llaganlar.

“Devonu lug‘ati-t-turk” kitobida keltirilgan ma‘lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyati, ayniqsa, X-XII asrlarda diyorumizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar yashagan davrni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, balki undan keyingi paytlardagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqisodiy, axloqiy, diniy e‘tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchaga ega bo‘lishimizda katta yordam beradi. “Devonu lug‘ati-t-turk”, birinchi navbatda, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarni, tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlanga asar. Shuning uchun ham asar mundarijasida qator lingvistik ma‘lumotlarga keng o‘rin ajratilgan. Bular sirasiga tillararo fonetik farqlar, so‘z yasalishi, yozuv va boshqa qaydlarni kiritish mumkin. Asarning lug‘at qismida esa juda ko‘p jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan uning qomusiylik darajasini ta‘minlagan materiallarga o‘rin berilgan.

Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki devonda keltirilgan so‘zlar, adabiy parchalar yolg‘iz XI asr tili va adabiyotidan namuna bo‘lmay ularning katta bir qismi juda uzoq o‘tmish davrlarning mahsulidir. Bu asarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabati masalasiga kelganda dastlab shuni aytish kerakki, o‘zbek tili uni yaratgan o‘zbek xalqi kabi juda uzoq muddat davomida turli holatlarni boshidan kechirib bugungi holatiga yetib keldi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari yaratilgan davr tili va leksikasi hozirgi o‘zbek tili leksikasiga asos bo‘lgan. Devondagi so‘zlarning bir qismi davr va til qonuniyatlariga muvofiq arxaik holga tushgan bo‘lsa ham, asosiy qismi turli hollarda, butunlay o‘zgarishsiz va yoki ba‘zi o‘zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Shuningdek ushbu so‘zlarning ba‘zilari turmushda qo‘llanib kelinayotgan bir qancha yangi so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Til taraqqiyoti va davr o‘tishi munosabati bilan ba‘zi so‘zlarning formasi (shakli) o‘zgargan, ba‘zi so‘zlarning esa ma‘nosi o‘zgargan, ba‘zilari turmushdan chiqib qo‘llanilmay o‘rnini yangi shakl va ma‘no egallagan.

Mahmud Qoshg‘ariyning umumjahon madaniyatiga qo‘shgan qimmatli tuhfasini “Devonu lug‘ati-t-turk” asari tilshunoslikka doir o‘lmas asar bo‘lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo‘yicha o‘quvchilarga atroflicha ma‘lumot beradigan mukammal qomusiy asar hisoblanadi.

“Devonu lug‘ati-t-turk” kitobida keltirilgan ma‘lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyati, ayniqsa, X-XI asrlarda diyorumizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar yashagan davrni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, balki undan keyingi paytlardagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqisodiy, axloqiy, diniy e‘tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchalarga ega bo‘lishimizda katta yordam beradi.

Shuningdek, “Devonu lug‘ati-t-turk” asari turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir.

“Devonu lug‘ati-t-turk”, birinchi navbatda, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarni, tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan asar. Shuning uchun ham asar mundarijasida qator lingvistik ma‘lumotlarga keng o‘rin ajratilgan. Bular sirasiga tillararo fonetik farqlar, so‘z yasalishi, yozuv va boshqa qaydlarni kiritish mumkin. Asarning lug‘at qismida esa juda ko‘p jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan uning qomusiylik darajasini ta‘minlagan materiallarga o‘rin berilgan. Ular turli xalqlarning tarixi, urf-odati, adabiyoti va boshqa sohalarini o‘rganishimizda ishonchli manba sifatida xarakterlanadi.

Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz unga ulug‘ ustod sifatida chuqur hurmat bilan qarab yondashadilar, unga asoslanadilar. Afsuski, bu ulug‘ olimning muhim asari hanuzgacha jamoatchilik nazaridan chetda qolib ketgan va jiddiy o‘rganilmagandir. Ana shu davr tilida ma‘lum bir me‘yorlarni yaratishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shu ehtiyoj Mahmud Koshg‘ariyni “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini yozishga da‘vat etdi. Bu asar turkologiyaning dastlabki namunasi sifatida o‘sha davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi.

“Devonu lug‘ati-t-turk” kitobida keltirilgan ma‘lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyati, ayniqsa, X-XII asrlarda diyorumizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar yashagan davrni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, balki undan keyingi paytlardagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqisodiy, axloqiy, diniy e‘tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchaga ega bo‘lishimizda katta yordam beradi. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir.

“Devonu lug‘otit turk”, birinchi navbatda, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarni, tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan asar. Shuning uchun ham asar mundarijasida qator lingvistik ma‘lumotlarga keng o‘rin ajratilgan. Bular sirasiga tillararo fonetik farqlar, so‘z yasalishi, yozuv va boshqa qaydlarni kiritish mumkin. Asarning lug‘at qismida esa juda ko‘p jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan uning qomusiylik darajasini ta‘minlagan materiallarga o‘rin berilgan.

### **Xulosa:**

Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining buyuk tilshunosi sifatida turkiy tillarda qo‘llangan so‘zlarni jamladi va ularni o‘ziga xos bilimdonlik va chidam bilan tadqiq qildi. “Devonu lug‘otit turk” qoraxoniylar davri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy-madaniy, maishiy, etnografik turmush tarzini anglashda, shu jihatlarga doir tushunchalarni ifodolovchi leksemalar tizimini idrok etishda bebaho manba hisoblanadi. Devonda keltirilgan so‘zlarning berilishi, etimologiyasi, keng qamrovda ekanligi turkiy til tarixini o‘rganishga keng yo‘l ochib berdi. Shuning uchun ham bu asar hozirgi

davrgacha tilshunoslik sohasidagi eng muhim manbalardan biri sifatida o'rganilib kelinmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)[1]
2. Xo'ja Ahmad Yunus. "Turkiy tillar devoni" dagi bayonlardan uyg'urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4, 21-b.[2]
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I jild. 126, 159, 444, 445-b[3]
4. M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III tomlik. T. - 1960. - I tom, 17, 67 betlar.[4]
5. Abdulaxatov N. va boshqalar. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent- 2013[5]